

GIPODERMATOZ KASALLIGINI DAVOLASHDA NEGUVON PREPARATINI QO'LLANILISHI

Arziyev Xidir Yuldashevich – SamDVMCHBU NF katta o‘qituvchi

Baxiyev Tengiz - SamDVMCHBU NF magistr

Raximov Xusniddin - SamDVMCHBU NF talaba

Jumashev Rajjabboy- QQXAI katta o‘qituvchi

Annatatsiya: Ushbu maqolada Qoraqolpoqiston Respublikasi Xujayli tumaniga qarashli Amudaryo MFYda qoramollar orasida gipodermatoz kasalligiga tekshirishlar olib borish va davolashda Ivermektin va Neguvon preparatlarining davolash samarasini aniqlash bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqotlarning natijalari keltirilgan. Olingan natijalarga Qoraqalpag‘iston respublikasi Xujayli tumaniga qarashli Amudaryo MFYda qoramollar orasida gipodermatoz kasalligining tarqalishi o‘rtacha 15,0 foiz ga teng bo‘ldi. Qoramollarning gipodermatoz kasalligini davolashda Ivermektin preparatning samarasi 93,3 foizga, Neguvon preparatining samarasi esa 100 foizga teng bo‘ldi

Kalit so‘zlar: Gelmint, parazit, gipodermatoz, araxno entomozlar, protozooy kasalliklar, immunoglobulin, fauna, ivermektin, neguvon.

Mavzuning dolzarbliji: Respublikamizda kundan-kun aholi sonini ortib borishi natijasida odamlarning chorva mahsulotlariga bo‘lgan talabi ham ortib bormoqda. Mamlakatimizda chorva bosh sonini kupaytirish va ulardan olinadigan hayvonot dunyosiga oid mahsulotlarni miqdorini va sifatini oshirish veterinariya xodimlarining oldiga yuksak vazifalarni quyadi. Qoraqolpog‘iston Respublikasi chorva mollarini parvarishlash uchun o‘ta qulay hudud hisoblanadi. Muhtaram Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev tomonidan 2019 yil 7 noyabrdagi PQ-4512 -sonli “Qoraqolpoqiston Respublikasida chorvachilik tarmoqlarini jadal rivojlantirish chora tadbirlari tug‘risida” gi qaroriga muvofiq Taxtakupir, Buzatov, Qung‘irot va Muynoq tumanlari chorvochilikka ixtisoslashgan hududga aylantirildi. Ushbu qarorda belgilangan vazifalarni bajarish uchun tajribali veterinariya mutaxasislarini tayyorlash, sog‘lom hayvonlardan iborat poda strukturasini yaratish, hamda ulardan ekologik toza, sifatli va kup miqdorda mahsulotlar yetishtirish kuzda tutilgan bulib, bu muammolarni hal qilish hozirgi vaqtida dolzarb vazifa biri sanaladi. Aholi ehtiyojini qondirish uchun qoramollardan olinadigan gusht, sut mahsulotlari miqdorini oshirish asosan shu hududlarda parvarishlanayotgan qoramollarning salomatligiga bog‘liqidir. Qoramollar orasida turli xil infeksion, invazion va yuqumsiz kasalliklar qayd qilinishi albatta ulardan kerakli darajada mahsulot

yetshtirish imkonini pasaytiradi. Qoramollarda gelmintozlar, araxno entomozlar va protozooy kasalliklar, ulardan olinadigan mahsulotlar miqdorini keskin kamayishiga olib keladi. Qoramollarning gipodermatoz kasalligi surunkali kechadigan kasallik bo'lib, to'qima va organlarning yallig'lanishi, so'nalarning lichinkalarining chiqindilari hisobidan organizmda intoksikatsiya holati, mollarning mahsuldorligini pasayishi umurtqa pog'onasi atrofida teri ostida yiringli kapsulalarning rivojlanishi bilan xarakterlanadi.

Qoramollarda gipodermatoz surunkali kechadi. Kasallik Hypodermatidae oilasining Hypoderma sinfiga mansub chivinlarning teri ostiga kirib borishidan iborat. Gipodermaning ikki turi mavjud: oddiy teri osti (chiziqlar) va qizilo'ngach (qizilo'ngach).

Parazitlar Qoraqalpag'iston Respublikasining deyarli butun hududida yashaydi va chorva mollariga ommaviy hujum qilgadi, hamda katta iqtisodiy zarar etkazisadi. Bu sut va go'sht mahsuldorligining pasayishi bilan ifodalanadi. Etarli davolash ishlari tashkil bo'lmasa, invaziya tufayli qoramollar o'lishi ham mumkin.

Tuxumdan chiqqan lichinkalar teri orqali yuirik shoxli hayvonlarning tanasiga kirib boradi, shundan so'ng ular tomirlar va nervlar bo'ylab umurtqa pog'onasiga ko'chib o'tadi va orqa miya kanaliga kiradi. Lichinkalar o'murtqa kanalda 5-6 oy davomida qoladi, shundan so'ng ular orqa va bel sohasiga kirib, kapsulalarni hosil qiladi, ularda fistula teshiklarini burg'ulaydi va eritadi. Etilganidan so'ng, bo'ka lichinkalari fistula teshiklari orqali kapsuladan chiqib, erga tushadi va ular g'o'mbakga aylanadi.[1.]

Bu kasallik xalq xo'jaligiga katta zarar yetkazadi: bo'ka lichinkalari bilan kasallangan hayvonlarning teri sifati buziladi, sut mahsuldorligi pasayadi, kasallangan yosh hayvonlar esa o'sishdan qoladi. bo'ka ichinkalari bilan kasallangan sigirlarning sut mahsuldorligi 15-25% ga kamayadi va katta yoshli hasharotlar uchish davrida urg'ochi chivinlarning hujumlari paytida tashvishlanish tufayli barcha sigirlarning sut mahsuldorligi 40-60% ga kamayadi. [2.]

Neguvon N eritmasi (Germaniyaning "Bayer" firmasi mahsuloti) hayvonning tirik og'irligi 150-200 kg gacha bo'lsa - 12 ml, 200-400 kg gacha bo'lsa – 18 ml va 400 ksh dan ortiq bo'lsa 24 ml miqdorda shpritslarga tortib olinib, bosim bilan umurtqa pog'onasining ikki yon tomoni bo'ylab, kurak suyagidan to dumg'azasigacha sepiladi. Davolash kursi bir marotaba bo'lib, samaradorligi 100 foizni tashkil qiladi. [3.]

Tadqiqot maqsadi: Qoraqalpag'iston sharoitida qoramollarning gipodermatoz kasalligini kechish jarayonini o'rganish, shu bilan birgalikda samarali davolash usullarini amaliyotga qullashdan iborat.

Tadqiqot vazifalari: 1. Qoraqalpag‘iston Respublikasi Xujayli tumani sharoitida qoramollarning gipodermatoz kasalligi bo‘yicha epizootologik ma’lumotlarni o‘rganish.

2. Gipodermatozga chalingan qoramollarni ajratib olib davolash.

Tadqiqot materiallari va usullari: Ilmiy tadqiqot ishlari Qoraqalpag‘iston respublikasi Xujayli tumaniga qarashli aholi qaromog‘idagi qoramollarda va Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali “Veterinariya meditsinasi va farmakologiyasi” kafedrasи o‘quv laboratoriyasida olib borildi. Tajriba davomida 120 bosh aholi qaramog‘idagi qoramollar klinik kurikdan o‘tkazildi va kasallangan 15 bosh qoramollar ajratilib davolandi.

Tadqiqot natijalari: Ilmiy tadqiqot ishlari Qoraqalpag‘iston respublikasi Xujayli tumaniga qarashli Amudaryo MFYda qoramollar orasida gipodermatoz kasalligiga tekshirishlar olib borildi. Tajriba davomida Chapayev qishlog‘idan klinik kurikdan o‘tkazilgan 44 bosh qoramollardan 8 boshida (18,2 foiz), Xatep qishlog‘idan 36 boshdan 4 boshida (11,1 foiz) va Xo‘ja qishlog‘idan 40 boshdan 6 boshida (15,0 foiz) qoramollarda gipodermatoz kasalligi borligi aniqlandi. Hududda qoramollar orasida gipodermatoz kasalligining tarqalishi 120 boshdan 18 boshida, ya’ni o‘rtacha (15,0 foiz) ga teng bo‘ldi. Tekshirishlar chog‘ida aniqlangan gipodermatoz kasalligiga chalingan hayvonlardan 15 boshi 5 boshdan uch guruhga bo‘linib antgelmintik preparatlari bilan davolandi.

Gipodermatoz kasalligiga chalingan qoramollarning davolash natijalari 1-jadvalda keltirilgan.

Qoramollarning gipodermatoz kasalligini antgelmintiklar bilan davolash.

Jadval 1

Nº	Tajriba guruhlari n =5	Qullanilgan preparatlarning dozalari	Klinik jihatdan kurinib turgan parazitlar soni (davolashgacha)	Klinik jihatdan kurinib turgan parazitlar soni (davolashdan 45 kundan sung)
1	I-guruh	Ivermektin 1 ml/kg t.v.	194	13
2	II-guruh	Neguvon 15 ml 1 bosh molga	207	0
3	III-guruh	Nazorat guruhi	198	201

1-jadvalda keltirilgan ma’lumotlardan kurinib turibdiki, o‘rtacha har bir molda 194 nusxa gipoderma bovis lichinkalari bilan zararlangan I-guruh qoramollarining 50 kg t/vazniga nisbatan 1 ml miqdorida Ivermektin preparati 10 kun oralig‘ida ikki marta yuborilganda 45 kundan keyingi tekshirilganda

o‘rtacha har bir boshga 13 nusxadan tug‘ri keldi. Preparatning samarasi 93,3 foizga teng bo‘ldi O‘rtacha har bir molda 207 nusxa gipoderma bovis lichinkalari bilan zararlangan II-guruhdagi tajriba hayvonlarining 1 boshiga 15 ml miqdorida Neguvon preparati boshidan dumigacha umurtqa pog‘onasi buylab surtilganda 45 kundan keyingi tekshirishlarda qoramollarda Hypoderma bovis lichinkalari topilmadi. Preparatning samarasi 100 foizga teng bo‘ldi. O‘rtacha har bir molda 198 nusxa Hypoderma bovis lichinkalari bilan zararlangan III -nazorat guruhdagi tajriba hayvonlari 45 kundan keyin tekshirilganda har bir molda o‘rtacha 201 nusxadan Hypoderma bovis lichinkalari borligi aniqlandi.

Xulosalar: O‘tkazilgan tadqiqotlarga asaosan shuni aytish mumkinki, Qoraqalpag‘iston respublikasi Xujayli tumaniga qarashli Amudaryo MFYda qoramollar orasida gipodermatoz kasalligining tarqalishi o‘rtacha 15,0 foiz ga teng bo‘ldi.

Qoramollarning gipodermatoz kasalligini davolashda Ivermektin preparatning samarasi 93,3 foizga, Neguvon preparatining samarasi esa 100 foizga teng bo‘ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

- 1 Абуладзе К.И. Паразитология и инвазионные болезни сельскохозяйственных животных. М.: Колос, 1982.
2. Абуладзе К.И. Практикум по диагностике инвазионных болезней сельскохозяйственных животных. М.: Колос, 1984.
3. Акбаев М.Ш. Паразитология и инвазионные болезни животных. М.: Колос, 1998.
- 4.Рахимов, М., Исмоилов, А., Шеркулов, А., & Камалова, А. (2024). Фауна и сезонная динамика симбионтов на пастбищах. *in Library*, 2(2), 30-33.
- 5.Камалова, А., Мавланов, С., & Исмоилов, А. (2024). Исследование остатков препарата «АЛЬФА-ШАКТИ» 10% ЭК в молоке крупного рогатого скота. *in Library*, 1(3), 201-205.
- 6.Kamalova, A. I., Mavlanov, S. I., & Ismoilov, A. S. (2024). EKTOPARAZITLAR BILAN ZARARLANGAN QORAMOLLAR QON KO ‘RSATKICHLARI. *Yangi O ‘zbekiston ustozlari*, 2(29), 117-121.
- 7.Boltayev, D. M., Pulotov, F. S., Sh, I. A., Rahimov, M. Y., & Djalolov, A. A. (2024). CYPRA EC PREPARATINING ECHKILARNING JUNXO ‘RLARIGA NISBATAN INSEKTITSID TA’SIRI. *Ustozlar uchun*, 1(1), 259-263.

- 8.Pulatov, F. S., & Sh, I. A. (2021, April). Fauna zooparasites. In *International Consortium on Academic Trends of Education and Science, Euro-Asia Conference* (pp. 3-4).
- 9.Dzhalolov, A. A., Pulotov, F. S., & Ismailov, A. S. (2024). Insecticidal property of bioinsecticide against bovicola ovis. *European Journal of Learning on History and Social Sciences*, 1(7), 159-163.
- 10.Рахимов, М., Пулотов, Ф., И smoилов, А., Джалолов, А., Болтаев, Д., & Сайфиддинов, К. (2024). Turingiensis UzVITI MNº 1 исследование штамма бактерий bacillus thuringiensis. *in Library*, 2(2), 144-148.
- 11.Рахимов, М., Болтаев, Д., Пулотов, Ф., И smoилов, А., & Джалолов, А. (2024). Инсектицидное действие препарата Ципра ЕС против козьих блох. *in Library*, 1(1), 259-263.
- 12.Рахимов, М., И smoилов, А., Пулотов, Ф., Рахимов, М., Джалолов, А., & Шеркулов, А. (2024). Эстроз и его лечение биоинсектицидным препаратом. *in Library*, 2(2), 79-83.
- 13.Pulotov, F. S., Ismoilov, A. S., Raximov, M. Y., Boltayev, D. M., & Djalolov, A. A. (2025, April). ECHKILAR JUNXO'RLARINING FAUNASI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15362111>. In *International scientific and practical conference* (Vol. 1, No. 2, pp. 152-156).
- 14.Ismoilov, A. S., & Kamalova, A. I. (2025, April). ZOOFIL HАShAROTLARGA QARSHI KARATIN-50 PREPARATINING INSEKTITSID SAMARADORLIGI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15360108>. In *International scientific and practical conference* (Vol. 1, No. 2, pp. 127-130).
- 15.Kamalova, A. I., & Ismoilov, A. S. (2025, April). QORAQALPOG'ISTON CHORVACHILIGIDAGI EKTOPARAZITLAR EKOLOGIYASI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15360158>. In *International scientific and practical conference* (Vol. 1, No. 2, pp. 138-142).